

TERMINOSISTEMANING KONSEPTUAL MOHIYATI

F. Vaxidova ¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada terminosistemaning konseptual mohiyati chuqur tahlil qilingan va kognitiv yondashuvni ilgari surish g'oyalari tadqiq etilgan. Shuningdek, "terminshunoslik" va "terminotizim" terminlari tafovuti, o'xshashligi, matnlarda qo'llanilishi va tizimliliigi hamda ularning sinonimlar sifatida qo'llanilishi batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv yondashuv, terminosistema, kognitiv tuzilma, termin, konsept.

doi: <https://doi.org/10.2024/9wkfed62>

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida zamonaviy tilshunoslik yutuqlari ta'siri ostida va axborot jamiyati ehtiyojlari bilan bog'liq holda, terminologik birliklarni tahlil qilishda yangi – kognitiv yondashuv yuzaga kelgan. S.V.Grinyovning so'zlariga ko'ra, terminologiyada kognitiv yondashuv «nafaqat ilmiy bilimlarning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, balki umuman insoniyat madaniyati va sivilizatsiyasining rivojlanish yo'llarini o'rganish uchun» muhimdir.

Rus tilshunosligida "kognitiv terminologiya" ilmiy maktabining asoschisi E.I.Golovanova hisoblanadi. Ushbu yo'nalish ilmiy bilish va fikrlashda atamalarning rolini o'rganib, kognitiv tilshunoslikning yutuqlari va usullaridan, xususan, kognitiv semantikadan foydalanadi. Hozirgi vaqtda V.M. Volodina, L.V. Ivina, L.A. Manerko, V.F. Novodranova kabi rus olimlari ham terminologiyada kognitiv yo'nalishni rivojlantirmoqdalar. E.I.Golovanovanning mulohazalariga qo'shilgan holda biz terminini o'rganishning kognitiv jihati bilan bog'liq bo'lgan kommunikativ-diskursiv yondashuvni hisobga olishni zarur deb bilamiz. Aynan u kasbiy kommunikatsiyaning zarur vositasini, faoliyat jarayonida kasbiy bilimlarni dolzarblashtirish vositasini ko'rishga imkon beradi.

Inson kasbiy faoliyatining ma'lum bir sohalaridagi barcha terminlar tahlilga tortilishi lozim, degan xulosaga kelish mumkin. Mazkur terminlar majmuasini belgilashda tadqiqotchilar "terminshunoslik", "terminotizim" va "terminomaydon" tushunchalariga murojaat qilgan, lekin bunda mazkur terminlar haqida yagona fikr hanuzgacha mavjud emas.

Umumiy terminshunoslik sohasidagi ko'plab olimlar terminlar majmuyini terminologiya, deb atashadi. Jumladan, O.S.Axmanova terminshunoslik deganda "ongli ravishda tartibga solinadigan leksikaning alohida sektori (plasti)ni tashkil etuvchi, bilimning mazkur sohadagi terminlar majmuyini tushunadi. Kognitiv nuqtai nazardan, bu atama nafaqat biron bir soha haqidagi bilimlarni verbal tarzda qayd etadi, balki ma'lum bir sohani tegishli bilim sohalarini bilan bog'laydi. Shuningdek, u ko'pincha ilmiy va tor ixtisoslashgan diskurslarda kundalik bilish elementlarini taqdim etadi. Shunday qilib, bu termin (terminologiya) axborot-kognitiv tuzilma professional kommunikatsiya jarayonida zarur bo'lgan maxsus bilimlarni to'playdigan va saqlaydigan model sifatida qaraladi.

Shunga o'xshash ta'rif "Терминоведческие проблемы редактирования" nomli ilmiy ishda ham keltirilgan: "Terminologiya – bu fan yoki texnikaning, umuman olganda, inson

¹ Vaxidova Fotima Saidovna, Buxoro davlat universiteti ingliz tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi f.f.f.d (PhD)

bilim yoki faoliyatining maxsus sohalarida tarixan shakllangan tushunchani ifodalaydigan terminlar to'plamidir".

Tadqiqotchilarning ikkinchi guruhi terminlar to'plamini terminshunoslik sifatida emas, balki terminosistema, ya'ni terminotizim deb qayd etishadi: "terminotizim" – bu o'zaro bog'liq va yagona narsani tashkil etuvchi o'zaro taqozo etilgan qismlarni shakllantiruvchi to'plam bo'lib, bunda asosiy o'rinlarni bazaviy terminlar egallaydi.

"Terminotizm – bu ma'lum bir bilimlar va faoliyat sohasidagi mantiqiy semantik va boshqa munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan asosiy tushunchalarni nominatsiyalashni ta'minlovchi terminlar to'plamidir".

Keltirilgan fikrlarga qo'shilmaslikning iloji yo'q, chunki har qanday termin faqatgina tizim chegarasida faoliyat yuritishi mumkin. Termin tushunchalar tizimining ajralmas elementi hisoblanganligi uchun ham ma'lum o'rin egallaydi. Bundan tashqari, tizimning barcha terminlari to'plam sifatida qat'iy tuzilmaviylikka ega va terminosistema haqida gapirganda biz, birinchi navbatda, terminshunoslikni kognitiv, ya'ni inson kommunikativ faoliyati bilan bog'liq tizim sifatida tushunamiz.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, kognitiv tilshunoslikda "terminshunoslik" va "terminotizim" tushunchalariga keltirilgan ta'riflar ko'p hollarda o'xshash. Ularni birlashtiruvchi xususiyat bu tushunchaviy va mazmunli tizimlilikdir. Buning natijasida terminshunoslik tadqiqotlarida bu ikki termin sinonimlar sifatida qo'llaniladi. Xususan, R.Yu.Kobrin terminshunoslik terminlar majmuyi, terminotizim esa shartli ravishda tartibga solingan, kodifikatsiyalangan terminologiya, deb ko'rsatib, ushbu terminlarni sinonimlar sifatida qo'llashni taklif etadi.

V.M.Leychikning fikricha, terminshunoslikning terminotizimdan farqi shundaki, terminshunoslik to'planib boradi, terminotizim esa shakllanadi. Bunda terminshunoslikning asosiy birliklari sifatida oldterminlar (terminoidlar)ni, terminotizimlar asosiy birliklari sifatida esa terminlarning o'zini qayd etish mumkin.

Shunday qilib, biz R.Yu.Kobrinning "terminshunoslik" va "terminotizim" terminlari sinonimlar sifatida qo'llanilishi lozim, degan nuqtayi nazarini qo'llab-quvvatlasak-da, tizimlilikning asosiy xususiyati tufayli "terminotizim" terminini ishlatishni afzal ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Гринёв С.В. Особенности развития терминоведения в начале XXI века // Лингвистика и образование, № 2 (2) – М., 2020. – С. 18-38.
- [2]. Голованова Е.И. Введение в когнитивное терминоведение. Учебное пособие. 2-е изд., стер. – М.: Наука, 2014. – 256 с.
- [3]. Володина М.Н. Психолингвистический аспект терминологической номинации / М.Н. Володина // Вестник МГУ. – М., 1996. – № 4. – С. 54-60.;
- [4]. Манерко Л.А. Истоки и основания когнитивно-коммуникативного терминоведения // Лексикология. Терминоведение. – М., 2003. – С. 120-126.;
- [5]. Vaxidova F.S. Ingliz va o'zbek tillari ziyorat turizm terminosistemasini birliklarining funksional-diskursiv shartlanishi. Monographiya. – Buxoro. 2024.;

INDEX REFERENCE

of the international scientific and practical conference “Philology, Methodology, Translation Studies: Current Issues of Modern Science”

Title of the article	<i>TERMINOSISTEMANING KONSEPTUAL MOHIYATI</i>
Author(s)	<i>Fotima Vaxidova</i>
Date	<i>8-9.11.2024</i>
DOI	https://doi.org/10.2024/9wkfed62

JA Inkwell Publishing

The main information of the article and the pdf format have been saved on the official website of the international publishing house "JA Inkwell Publishing".



Google Scholar

The article has been indexed in Google Scholar, the main platform for increasing the citation of articles.



ZENODO

The article has been placed on the European Open Data International Database.



OpenAire

The article was published into the international scientific database, recognized as one of the primary databases in Europe and extensively utilized in over 35 countries.

